

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 2

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 2
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**2-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 2
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.



INSON SALOMATLIGI VA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA EKOLOGIK TA'LIMNING AHAMIYATI

Arolova Zarina Lochin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, talaba.

Annotatsiya.

Maqolada globallashuv sharoitida yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishda ekologiya to'g'risidagi fikr-mulohazalar, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrab-avaylash, yoshlarda ekologik madaniyatni oshirishning muhim jihatlariga oid ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, ekologiya, ekologik ong, ekologik madaniyat, globallashuv, metod, sivilizatsiya, avesto, hadis.

ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОХРАНЕ ЗДОРОВЬЯ ЧЕЛОВЕКА И ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Аролова Зарина Лочин кизи

Шахрисабзский государственный педагогический институт, студентка.

Аннотация.

В статье представлена информация о важных аспектах экологии, экологии и охраны окружающей среды, охраны природы, развития экологической культуры молодежи в формировании национального образования молодежи в условиях глобализации.

Ключевые слова: национальное образование, экология, экологическое сознание, экологическая культура, глобализация, метод, цивилизация, Авеста, хадисы.

THE IMPORTANCE OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IN PROTECTING HUMAN HEALTH AND THE ENVIRONMENT

Arolova Zarina Lochin qizi

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Student.

Abstract.

The article provides information on important aspects of ecology, ecology and environmental protection, nature conservation, development of, ecological culture of youth in the formation of national education of youth in the context of globalization.

Keywords: national education, ecology, ecological consciousness, ecological culture, globalization, method, civilization, Avesta, hadith.

Kirish. Tabiatdan va resurslardan oqilona foydalanish hamda tabiiy atrof-muhitni saqlashning ilmiy asoslari va amaliy metodlarini aniqlashni bilish hozirda shiddat bilan rivojlanayotgan taraqqiyot davrida muhim va dolzarb omil hisoblanadi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, jamiyat va tabiat o'rtasidagi dialektik o'zaro aloqani tushunish, ekologik muammolarning sabablari va ularni bartaraf etish yo'llarini bilish, atrof-muhit sohasida xalqaro hamkorlik zaruriyati, arxitekturaviy loyihalash hujjatlarida ekologik toza qurilish materiallarini qo'llash, hozirgi ekologik vaziyat va siyosat, uni rivojlantirish yo'nalishlari hamda muammolarining asosiy jihatlarini chuqur o'rganish iqtisodiyotning real tarmoqlaridagi muammolarni hal qilishda muhim o'rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Dunyo miqyosida sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog'liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak. Buning uchun biz tabiatga e'tibor berishimiz, faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutishimiz zarur. Eng muhim masala aholining ekologik madaniyatini oshirish» [1]. Ekologik madaniyat haqida B.N. Omonov, G.A. Ochilova, Kh.Sh. Nomozov, Yu.Kh. Manzarovning suv tanqisligi muammosi va ekologik globallashuvga doir manbalari, shuningdek, B. Omonov va S. Mamashakirov tadqiqotlarida tahlillar keltirilgan.

Globallashuv sharoitida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan tizimli va tartibli foydalanish,

shuningdek, yangi innovatsion loyihalarni yaratish va tatbiq etish bugungi kunning eng muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Hozirgi kunda Yer sharining turli mintaqalarida yuz berayotgan ekologik tangliklar tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish va unga ko'proq e'tibor qaratish lozimligini anglatadi. Yurtimizda yosh avlodning jismonan sog'lom o'sishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ammo sog'lom turmush tarzini shakllantirishni barqaror ekologik muhitsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Atrof-muhitning tozaligi bolalarning sog'lom va yetuk voyaga yetishining asosiy omilidir. Hozirgi kundagi ekologik muammolar, ekologik muhitning ahvoli, bolalardagi kamqonlik, turli yuqumli kasalliklar, allergiya va nuqsonli tug'ilishlar ekologiyani ta'siri haqidagi adabiyotlarni o'rganib chiqish, zamonaviy pedagogik izlanishlarni tahlil qilish hamda ular asosida yangi metodlarni ishlab chiqish bolalarda yoshlikdanoq ekologik tarbiyaga bo'lgan ehtiyojni oshirib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Atrof-muhitni asrash masalasi har bir davrda o'ziga xos jarayonlarda shakllandi. Qadimgi va o'rta asrlarda Yer yuzining barcha hududlarida tabiatdan foydalanishning an'anaviy shakli hukmronlik qildi. Texnika va texnologiyalar ko'proq Yer yuzasidagi tabiiy mahsulotlarni qayta ishlashga moslashtirilgan bo'lib, kimyoviy mahsulotlar iste'moliga talab yuqori emas edi. Aholi iste'moliga tabiatning ekologik toza mahsulotlari yetarli bo'lgan va texnologiyalarni qayta ishlash quvvati pastroq darajada edi. Davlatlarning xom ashyoga ehtiyoji kapitalizmning boshlanishi bilan jadallasha bordi. Bu davrda texnika va texnologiyalar inqilobi yuzaga keldi. Aholining soni keskin ko'paydi. Tabiiy resurslarga bo'lgan talab shiddatli o'sdi. Davlatlarning tabiat resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Davlatlar o'rtasidagi raqobat ham ancha ortdi. Ekologiyaga zarar yetkazish global darajaga yetdi. XX asrning oxirlariga kelib jahonda ekologik muammolarning oldini olish umuminsoniyat vazifasiga aylandi. Bu esa yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi.

Ekologik muammo ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatib, ayniqsa, insonlar salomatligiga xavf soladi. Shuning uchun yosh avlodga bolalik davridanoq ekologik madaniyat omillarini tushuntirish lozim. Ekologiyani globallashuvi inson ekologik madaniyatini oshirish omili bo'lgan ta'lim-tarbiya mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish talabini qo'ymoqda. Ekologik tarbiyaning shakllanishi inson hayot faoliyati davomida asta-sekin takomillashib boradi. Ammo bu jarayon ekologik madaniyatning shakllanish darajasini munosib oshirish imkoniyatiga ega bo'la olmaydi. Chunki inson hayot faoliyati davomida o'ziga yetarli bo'lgan minimal ekologik amaliy tajribaga ega bo'la oladi. Undan ortig'i esa faqat ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida takomillashadi. Shu sababli inson ekologik madaniyatini shakllantirish uchun, avvalo, yoshlarda ekologik ta'lim-tarbiya jarayonlarini mukammal olib borish davr talabiga aylanib ulgurdi. Insonning ekologiyaga bo'lgan munosabati yangi ming yillikda o'tgan davrlarga nisbatan tubdan farq qiladi. Inson hayot faoliyatini ona zaminda boshlaganidan to XX asrning boshlariga qadar ekologiyaga bo'lgan munosabat faqat tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kontekstida amalga oshirilgan. XX asrning o'rtalaridan boshlab ekologiyaga bo'lgan munosabatlar fonida keskin o'zgarish yuzaga keldi. Ekologik munosabatlarda faqat inson va tabiat manfaatlari emas, endilikda turli guruhlar, davlatlar, konfederatsiyalar manfaatlari jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan holda namoyon bo'la boshladi. Bu esa inson ekologik madaniyatini oshirishda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy mexanizmlariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Bugungi ekologik ta'lim-tarbiya, avvalo, oilada farzand tarbiyasida ekologik dunyoqarashni shakllantirishdan boshlanib, ta'lim muassasalari orqali rivojlantiriladi.

Ekologik madaniyat inson faoliyati davomida doimiy harakatda, ma'lum xususiyatlarga ko'ra rivojlanib boradigan jarayon bo'lib, ijtimoiy madaniyatning tarkibiy qismidir. Inson ekologik madaniyatini shakllantirish global jamiyatda muhim ustuvor vazifaga aylanib bormoqda. Jahonda kechayotgan geosiyosiy jarayonlar ekologik munosabatlarga ham alohida ta'sir ko'rsatdi. Ba'zi mintaqalarda ekologik inqiroz tobora kuchayib, inson hayoti va tabiatning rivojlanish mexanizmlariga jiddiy zarar yetkazishga ulgurdi. Ekologik inqirozning jadal quloch yoyib borishi, bir tomondan, obyektivlik xususiyatini namoyon qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, insonning subyektiv noreal munosabatlari natijasida sodir bo'layotganini ko'rsatmoqda. Bu esa umuminsoniyat ekologik madaniyatini shakllantirishni kun tartibiga qo'ymoqda. Inson uchun ekologik madaniyatning shakllanishi obyektiv munosabatlar tarkibini tashkil etsa-da, xalqaro geosiyosiy jarayonlarning olamshumul tus olishi subyektiv munosabatlar tarkibida mustahkamlanib borishini ta'minlamoqda. Ekologik inqirozning kengayishi inson hayotini saqlash uchun tabiatni asrab-avaylash zarurligini ko'rsatdi. Endilikda inson tabiatni tabiat uchun emas, o'zi uchun asrashni kerakligini aniq his qildi. Tabiatni ayovsiz ishg'ol etish inson hayotidagi katta muvaffaqiyat xatolikni namoyon etdi. Ekologiyaga bo'lgan munosabat endilikda bitta davlat, bitta mintaqaga yoki ma'lum hududlarni tartibga solish bilan belgilanmayapti. U xalqaro tus olib, ekologik munosabatlarning integratsiyalashuviga yo'l ochmoqda.

Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va barkamol avlod qilib tarbiyalash yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, bu borada nazariy va amaliy shart-sharoitlar yaratilgan. O'zbekistonda islohotlarning birinchi bosqichida davlat ekologik siyosatining huquqiy negizlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor berildi. Chunki demokratik huquqiy davlat qurish, ya'ni ekologik munosabatlarga mos keluvchi huquqiy qonunlarni qabul qilishni taqozo qilmoqda [2, b. 209].

Ekologik tarbiyaning maqsadi inson va tabiatni o'zaro uyg'unlashtirib, ekologiyani anglatish hamda o'quvchilarda ekologik mas'uliyat va madaniyatni shakllantirishdan iborat. Ekologik ta'lim va tarbiyaning maqsadi maktab o'quvchilarida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni tarkib toptirishni ta'minlovchi ilmiy bilimlar, qarashlar va e'tiqodlar tizimini shakllantirishdan iborat. Ekologik ta'limda dunyoqarashni ekologiyalashtirish ham muhim

yo'nalishlardan biridir. Bunga erishishning muhim vositasi insonlarning o'z ustida ishlashi, tabiat sirlarini o'rganishga va ekologik bilimlarini oshirib borishga bo'lgan intilishlaridir [3, b. 222].

Tahlil va natijalar. Ekologik madaniyat, umuman, ekologik madaniyatning turli jihatlarini ilm-fanning ilmiy tadqiqotlari jarayonida ko'p o'rganiladigan va hatto ko'p o'rganilgan ilmiy muammolar sirasiga kiradi. Bu borada, ayniqsa, «Ekologik madaniyat tarixi biosferada *Homo sapiens* (aqli odam) paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Ming yillar davomida insoniyat atrof-muhit va jamiyat bilan o'zaro munosabatda ekologik madaniyatni yuksaltirish borasida kerakli tajriba to'pladi. Qishloq xo'jaligi inqilobi inqirozga yuz tutishni boshlagan atrof-muhit bilan uyg'unlikning yangicha munosabatlarini shakllantirishga olib keldi» [4, b. 230], degan fikr e'tiborga sazovordir. Ya'ni olimning fikriga ko'ra, ekologik madaniyat insoniyat tarixi rivojlanishining barcha bosqichlarida ham diqqat markazida bo'lgan va, tabiiyki, ilmiy izlanishlar hamda ilmiy tadqiqotlar predmeti sifatida o'rganilgan bo'lib, ekologik ta'limning vazifalari qatoridan o'rin olgan.

Eng qadimgi milliy manbaimiz — **«Avesto»**da ham tabiatning to'rt unsurini asrab-avaylashga asosiy e'tibor qaratilgan. «Avesto»da suv, havo, olov va tuproq muqaddas sanalib, tabiatning tarkibiy qismlari bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosi inson uchun zarur moddiy ne'matlar manbai, sog'liq, shodlik va turmushga mehr-muhabbatni oshirish vositasi sifatida talqin etilgan. «Avesto»da o'zi o'sib-ulg'aygan zaminni obod va go'zal maskanga aylantirish har bir insonning burchi hisoblangan. «Avesto»da o'qiymiz: «Kimda-kim bug'doy eksa, u Ashahni (Haqiqat) ekadi. U Mazda dinini yana va yana ko'kartiradi. U Mazda dinini yuzlab hamdu sano, nazr-u niyoz va o'n minglab qurbonliklar bilan quvvatlantirgandek qudratli qiladi. Qachonki egatlarda urug' ekilsa, devlar o'rinlaridan qo'padilar. Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar. Qachonki bug'doy un bersa, devlar nola chekadilar» [5, b. 375]. Yerga ishlov berish, ekin ekish, umr nurafshonligi, rizq mo'lligi va ikki dunyosi obod bo'lishi haqidagi xalq maqollari, ertaklar, dostonlar hamda qo'shiqlar «Avesto» ta'limoti asosida Sharq hududiga keng tarqalgan.

Qur'oni Karim va hadislarida ham tabiatni muhofaza qilish, boyitish hamda pokiza saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Hadislarning ko'pchiligida inson tabiat boyliklarini tejab-tergash va ularni muhofaza etishga o'rgatiladi. Hadis ilmining taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan hadisshunos alloma Imom Buxoriy ham o'z hadislarida tabiat muhofazasiga oid rivoyatlarni keltirgan. Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilar: «Kimning yeri bo'lsa, uni o'zi eksin yoki uni birodariga berib tursin. Agar ko'nmasa, yerini ushlab tursin». Yana bir hadisda Rasululloh (s.a.v.) bunday marhamat qilganlar: «Qaysi bir musulmon bir daraxt yoki biror ekin eksa-yu, uning hosilidan qush, inson yoki hayvon yesa, buning uchun unga sadaqa (savobi) bo'ladi» [6, b. 494]. Hadislarning ko'pgina bandlarida o'simlik ekish va ularni ko'paytirish, dehqonchilik bilan shug'ullanish zarurligi, ya'ni o'simliklarning tabiat va inson hayotidagi muhim ahamiyati, ularning tashqi muhitga ta'siri hamda insonlarning ulardan foydalanishi kabi ekologik tushunchalar jamlangan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ekologik madaniyat shakllanishida ta'lim-tarbiyaning funksiyasi nimaga yo'naltirilgani va maqsadlari nimalardan iborat ekanligini aniq aks ettirishi kerak. O'z mohiyatiga ko'ra bu funktsiya kompleks xarakterga ega bo'lib, ayni paytda tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish yo'nalishlarini uyg'unlashtirgan holda qamrab olishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. «Aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur» // *Daryo.uz*. – 2022. – URL: <https://daryo.uz/2022/02/02/odamlarimiz-hatto-hovlisi-atrofini-tozalashdan-daraxt-gul-kochat-ekib-saranjom-sarishta-qilib-qoyishdan-erinadigan-bolib-qoldi-shavkat-mirziyoyev>.
2. Omonov B. N. Ekologik tarbiya tizimida ongli ehtiyojni shakllantirish masalalari // *O'zMU xabarлари*. – Toshkent, 2017. – № 1/2. – B. 206–210.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. *Sahih Buxoriy*. I-qism. – Toshkent: Munir nashriyoti, 2021. – 499 b.
4. Омонов Б. Н. Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии // *Proceedings of the 4th International Multidisciplinary Scientific Conference «Global Technovation»*. – Paris, France, 2021. – URL: <https://conferencepublication.com>.
5. Omonov B. *Ekologik globallashtirish va uning O'zbekistondagi ekologik muhitga ta'siri*. – Toshkent: Voris nashriyoti, 2021. – 136 b.
6. Azamova S. The Need for Environmental Education of Youth in the Conditions of Environmental Globalization // *O*. – 2022. – ISSN 2181-7324.